

Qoraqalpog'iston Respublikasida **qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi**


2025- yil yanvar-dekabr oylari uchun

- I. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi
- II. Qoraqalpog'iston Respublikasi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi hududlar kesimida
- III. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish
- IV. Chorva mollari va parrandalar bosh soni
- V. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi **mahsulot (xizmat)lari hajmi**

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2025- yilning yanvar-dekabr oylarida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi 21 623,8 mlrd so'mni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar – 20 370,9 mlrd so'mni, o'rmon xo'jaligi – 931,8 mlrd so'mni, baliqchilik xo'jaligi – 321,1 mlrd so'mni tashkil qildi.

Qoraqalpog'iston Respublikasida qishloq, o'rmon va baliqchilik **xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmining o'sish sur'ati**



II. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi **mahsulot (xizmat)lari hajmi hududlar kesimida**

2025- yilning yanvar-dekabr oylarida hududlar kesimida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining eng yuqori hajmi Amudaryo (3 915,8 mlrd so'm), Beruniy (2 434,3 mlrd so'm), Ellikqal'a (2 420,5 mlrd so'm), To'rtko'l (2 293,9 mlrd so'm), Chimboy (1 693,8 mlrd so'm) va Qo'ng'iro't (1 242,4 mlrd so'm) tumanlarida qayd etildi.

Aksincha kam hajmga ega hududlarga Nukus shahri (144,9 mlrd so'm), Mo'ynoq tumani (239,2 mlrd so'm) va Bo'zatov tumanini (402,1 mlrd so'm) keltirib o'tish mumkin.

	Hajm mlrd so'm	O'sish sur'ati % da
Qoraqalpog'iston Respublikasi	21 623,8	104,9
Nukus sh.	144,9	100,2
Amudaryo	3 915,8	108,6
Beruniy	2 434,3	103,6
Bo'zatov	402,1	101,9
Qorao'zak	851,1	106,7
Kegeyli	811,5	106,5
Qo'ng'iro't	1 242,4	111,5
Qonliko'l	1 168,0	105,4
Mo'ynoq	239,2	92,2
Nukus	698,1	100,9
Taxiatosh	508,2	103,2
Taxtakopir	845,3	104,3
To'rtko'l	2 293,9	102,7
Xo'jayli	1 014,6	103,3
Chimboy	1 693,8	102,8
Shumanay	940,1	104,7
Ellikqal'a	2 420,5	103,7

Hududlar bo'yicha qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati tahlil qilinganda, yuqori o'sish sur'atlari Qo'ng'iro't (111,5 %), Amudaryo (108,6 %), Qorao'zak (106,7 %), Kegeyli (106,5 %), Qonliko'l (105,4 %) va Shumanay (104,7 %) tumanlarida qayd etildi.

Boshqa hududlarga nisbatan Mo'ynoq (92,2 %) tumanida va Nukus (100,2 %) shahrida hamda Nukus (100,9 %), Bo'zatov (101,9 %) tumanlarida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

III. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish


2025- yilning yanvar-dekabr oylarida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi 19 932,0 mlrd so'mni yoki 2024- yilning mos davriga nisbatan 104,9 % ni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari 8 970,1 mlrd so'mni (110,1 %), chorvachilik mahsulotlari 10 961,9 mlrd so'mni (100,5 %) tashkil qildi.

Hududlar kesimida qishloq xo'jaligi mahsulotlarining eng yuqori hajmi Amudaryo (3 656,9 mlrd so'm), Beruniy (2 339,3 mlrd so'm), Ellikqal'a (2 249,8 mlrd so'm) va To'rtko'l (2 168,7 mlrd so'm) tumanlarida qayd etildi.

Aksincha kam hajmga ega hududlarga Nukus shahri (97,8 mlrd so'm), Mo'ynoq tumani (178,8 mlrd so'm) va Bo'zatov tumanini (366,2 mlrd so'm) keltirib o'tish mumkin.

Yuqori o'sish sur'atlari Qo'ng'iro't (110,8 %), Amudaryo (108,9 %), Qorao'zak (107,0 %), Kegeyli (106,1 %) va Qonliko'l (105,3 %) tumanlarida qayd etildi. Nukus (99,1 %) shahri va Mo'ynoq (90,4 %), Nukus (100,7 %) tumanlarida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

Yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



Xo'jalik toifalari bo'yicha tahlillar, qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 59,6 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 31,1 % i fermer xo'jaliklariga, 9,3 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.

Dehqonchilik mahsulotlarini yetishtirish

2025- yilning yanvar-dekabr oylarida yetishtirilgan dehqonchilik mahsulotlari hajmi 8 970,1 mlrd so'mni yoki 2024- yilning mos davriga nisbatan 110,1 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida dehqonchilik mahsulotlarining eng yuqori hajmi Amudaryo (2 129,6 mlrd so'm), To'rtko'l (977,7 mlrd so'm), Ellikqal'a (925,1 mlrd so'm), Beruniy (857,8 mlrd so'm) va Qonliko'l (703,8 mlrd so'm) tumanlarida qayd etildi.

Aksincha kam hajmga ega hududlarga Nukus shahri (26,7 mlrd so'm), Mo'ynoq tumani (36,1 mlrd so'm) va Bo'zatov tumanini (72,8 mlrd so'm) keltirib o'tish mumkin.

Yuqori o'sish sur'atlari Qo'ng'iro't (122,9%), Qorao'zak (118,2 %), Kegeyli (118,1 %), Amudaryo (114,3 %) tumanlarida qayd etildi. Mo'ynoq (81,9 %), Nukus (100,7 %) tumanlarida va Nukus shahrida (91,0 %) esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

2025- yilning yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 393,3 ming tonna donli ekinlar (2024- yilning yanvar-dekabriga nisbatan 15,0 % ga ko'p), 113,0 ming tonna kartoshka (1,8 % ga ko'p), 419,0 ming tonna sabzavotlar (92,8 %), 236,8 ming tonna poliz ekinlari (16,3% ga ko'p), 80,0 ming tonna meva va rezavorlar (10,1 % ga ko'p), 16,2 ming tonna uzum (12,7 % ga ko'p) yetishtirildi.



Yetishtirilgan asosiy turdagi dehqonchilik mahsulotlari

	Yanvar-dekabr 2025 y.	O'sish sur'ati % da
Donli ekinlar, ming tonna	393,3	115,0
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	308,4	111,5
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	45,9	2,0 m.
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	39,0	91,6
Kartoshka, ming tonna	113,0	101,8
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	43,8	123,2
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	67,0	89,8
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	2,2	2,7 m.
Sabzavotlar, ming tonna	419,0	92,8
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	166,6	117,4
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	236,3	78,8
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	16,2	165,8
Poliz ekinlari, ming tonna	236,8	116,3
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	128,3	122,7
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	103,6	111,3
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	4,8	81,6
Meva va rezavorlar, ming tonna	80,0	110,1
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	41,3	122,1
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	27,6	101,3
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	11,1	95,5
Uzum, ming tonna	16,2	112,7
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	9,3	124,5
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	5,9	99,8
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	1,0	100,6

2025- yil yanvar-dekabr oylarida yetishtirilgan asosiy turdagi dehqonchilik mahsulotlari to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, donli ekinlar yetishtirishning 78,4 % i fermer xo'jaliklari hissasiga, 11,7 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 9,9 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim.

**2025- yil yanvar-dekabr oylarida yetishtirilgan asosiy turdagi
dehqonchilik mahsulotlari hajmi (tonna)**

	<i>Donli ekinlar</i>	<i>Kartoshka</i>	<i>Sabzavotlar</i>
Qoraqalpog'iston Respublikasi	393 256	113 008	419 043
Nukus sh.	74	520	4 180
Amudaryo	86 856	31 534	111 469
Beruniy	46 370	12 307	37 406
Bo'zatov	7 235	1 350	3 660
Qorao'zak	14 817	3 023	9 685
Kegeyli	9 085	1 397	9 272
Qo'ng'iro't	24 853	9 510	36 852
Qonliko'l	48 205	2 389	33 509
Mo'ynoq	3 833	548	1 801
Nukus	15 977	3 781	24 572
Taxiatosh	5 183	2 324	7 011
Taxtakopir	11 199	2 888	9 028
To'rtko'l	33 424	17 051	41 608
Xo'jayli	11 202	4 689	11 399
Chimboy	29 959	7 028	27 273
Shumanay	19 697	2 683	17 934
Ellikqal'a	25 288	9 987	32 383

Shunga mos ravishda kartoshkaning 38,7 % i fermer xo'jaliklari, 59,3 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 2,0 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi, shuningdek, sabzavotlarning 39,8 % i fermer xo'jaliklari, 56,4 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklari, 3,8 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi, poliz ekinlarining 54,2 % i fermer xo'jaliklari, 43,8 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklari, 2,0 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi, meva va rezavorlarning 51,7 % i fermer xo'jaliklari, 34,5 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklari, 13,8 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi, uzumning 57,2 % i fermer xo'jaliklari, 36,4 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklari, 6,4 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri keldi.

**2025- yil yanvar-dekabr oylarida yetishtirilgan ayrim turdagi
dehqonchilik mahsulotlari hajmi (tonna)**

	<i>Poliz ekinlari</i>	<i>Meva va rezavorlar</i>	<i>Uzum</i>
Qoraqalpog'iston Respublikasi	236 796	79 975	16 236
Nukus sh.	189	120	227
Amudaryo	37 991	28 769	6 334
Beruniy	29 223	13 117	2 146
Bo'zatov	2 778	614	58
Qorao'zak	8 930	1 010	157
Kegeyli	5 378	1 728	78
Qo'ng'iro't	10 394	2 567	650
Qonliko'l	25 279	4 160	450
Mo'ynoq	671	136	16
Nukus	11 455	1 389	478
Taxiatosh	4 108	971	328
Taxtakopir	6 697	948	306
To'rtko'l	38 145	7 709	1 290
Xo'jayli	5 909	1 528	440
Chimboy	19 693	2 693	430
Shumanay	13 104	1 735	196
Ellikqal'a	16 852	10 782	2 651

Chorvachilik mahsulotlari yetishtirish

2025- yilning yanvar-dekabr oylarida yetishtirilgan chorvachilik mahsulotlari hajmi 10 961,9 mlrd so'mni yoki 2024- yilning mos davriga nisbatan 100,5 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida chorvachilik mahsulotlarining eng yuqori hajmi Amudaryo (1 527,3 mlrd so'm), Beruniy (1 481,5 mlrd so'm), Ellikqal'a (1 324,7 mlrd so'm), To'rtko'l (1 191,0 mlrd so'm) va Chimboy (787,7 mlrd so'm) tumanlarida qayd etildi.

Aksincha kam hajmga ega hududlarga Nukus shahri (71,1 mlrd so'm), Mo'ynoq tumani (142,7 mlrd so'm) va Nukus tumanini (279,2 mlrd so'm) keltirib o'tish mumkin.

Yuqori o'sish sur'atlari Nukus shahri (103,2 %) va Qonliko'l (102,5 %), Bo'zatov (101,2 %), Amudaryo (101,1 %), Taxtakopir (101,1 %), Beruniy (101,0 %) tumanlarida qayd etildi. Mo'ynoq (93,4 %), Taxiatosh (97,1 %), Shumanay (98,5 %) va Xo'jayli (100,4 %) tumanlarida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

2025- yilning yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan tirik vaznda 130,3 ming tonna go'sht, 470,7 ming tonna sut, 425,0 mln dona tuxum, 1,6 ming tonna qirqib olingan jun, 98,0 ming dona qorako'l teri, 1,0 ming tonna pilla yetishtirildi va 14,0 ming tonna baliq ovlandi.



Hisobot davrida tirik vaznda yetishtirilgan go'sht hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 100,3 % ni, sog'ib olingan sut – 100,2 % ni, olingan tuxum – 103,6 % ni, qirqib olingan jun – 103,5 % ni, olingan qorako'l teri – 101,8 % ni, yetishtirilgan pilla – 101,8 % ni hamda ovlangan baliqlar – 109,3 % ni tashkil qildi.

**Yetishtirilgan asosiy turdagi
chorvachilik mahsulotlari va ovlangan baliqlar**

	Yanvar-dekabr 2025 y.	O'sish sur'ati % da
Go'sht (tirik vaznda), ming tonna	130,3	100,3
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	7,7	149,8
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	119,7	97,7
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	2,9	129,0
Sut, ming tonna	470,7	100,2
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	40,1	123,7
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	425,3	98,6
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	5,3	89,4
Tuxum, mln. dona	425,0	103,6
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	42,5	126,0
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	298,7	100,6
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	83,8	105,6
Jun, tonna	1 628,0	103,5
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	266,0	105,1
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	1 327,0	103,9
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	35,0	81,4
Qorako'l teri, ming dona	98,1	101,8
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	8,9	95,1
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	87,2	102,3
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	2,0	116,3
Baliq, ming tonna	14,0	109,3
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	6,5	105,9
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	2,2	101,2
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	5,3	118,0

2025- yil yanvar-dekabr oylarida yetishtirilgan chorvachilik mahsulotlari to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yetishtirilgan go'shtning umumiy hajmidan 5,9 % i fermer xo'jaliklari hissasiga, 91,9 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 2,2 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim.

Shunga mos ravishda sog'ib olingan sutning 8,5 % i fermer xo'jaliklari, 90,3 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklari, 1,2 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri keldi.

Shu bilan birga, olingan tuxumning 10,0 % i fermer xo'jaliklariga, 70,3 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 19,7 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi.

Shuningdek, qirqib olingan junning 16,3 % i fermer xo'jaliklariga, 81,5 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 2,2 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi.

Bundan tashqari, olingan qorako'l terining 9,1 % i fermer xo'jaliklariga, 88,9 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 2,0 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi.

O'z navbatida, ovlangan baliqlarning 46,6 % i fermer xo'jaliklariga, 15,8 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 37,6 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelganligini qayd etish lozim.

2025- yil yanvar-dekabr oylarida yetishtirilgan asosiy turdagi
chorvachilik mahsulotlari va ovlangan baliqlar hajmi (tonna)

	Go'sht <i>(tirik vaznda)</i>	Sut	Tuxum, <i>ming dona</i>	Baliq
Qoraqalpog'iston Respublikasi	130 313	470 745	425 011	13 988
Nukus sh.	957	2 091	3 846	11,9
Amudaryo	17 486	69 329	75 526	2 097
Beruniy	18 464	50 931	87 397	1 521
Bo'zatov	3 620	12 551	5 481	189
Qorao'zak	5 939	14 618	10 623	268
Kegeyli	5 918	16 088	13 832	742
Qo'ng'iro't	6 421	31 618	36 757	528
Qonliko'l	5 227	15 742	12 250	649
Mo'ynoq	1 725	6 028	4 614	254
Nukus	3 278	12 480	11 092	590
Taxiatosh	3 256	15 570	7 361	506
Taxtakopir	6 807	14 968	7 922	1 182
To'rtko'l	13 064	57 930	56 464	1 359
Xo'jayli	7 776	33 155	17 204	561
Chimboy	9 878	30 572	25 055	1 110
Shumanay	5 523	22 044	14 694	531
Ellikqal'a	14 975	65 032	34 894	1 890

IV. Chorva mollari va parrandalar bosh soni

2026- yilning 1-yanvar holatiga barcha toifadagi xo'jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni 1 265,2 ming boshga yetdi, (o'tgan yilning mos davriga nisbatan 0,4 % ga ko'p), sigirlar 361,9 ming boshga (0,1 % ga ko'p), qo'y va echkilar 1 253,8 ming boshga (0,2 % ga ko'p), parrandalar 5 744,6 ming boshga (6,7 % ga ko'p) yetdi.

2026- yilning 1- yanvar holatiga xo'jaliklar toifalari bo'yicha chorva mollari va parrandalar bosh soni

	Ming bosh	O'sish sur'ati
Yirik shoxli qoramollar	1 265,2	100,4
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	74,1	100,0
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	1 175,3	100,2
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	15,8	110,5
shundan sigirlar	361,9	100,0
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	31,8	104,0
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	323,9	99,7
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	6,2	100,0
Qo'y va echkilar	1 253,8	100,1
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	193,4	102,6
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	1 014,6	98,3
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	45,8	142,4
Otlar	29,1	103,7
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	7,8	104,8
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	20,2	102,4
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	1,2	121,2
Parrandalar	5 744,6	106,7
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	825,5	140,9
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	4 025,3	100,3
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	893,8	113,7

2026- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 5,9 % i fermer xo'jaliklari hissasiga, 92,9 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 1,2 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim, shunga mos ravishda sigirlarning umumiy sonidan 8,8 % i fermer xo'jaliklariga, 89,5 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 1,7 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi, shuningdek, qo'y va echkilarning umumiy sonidan 15,4 % i fermer xo'jaliklariga, 80,9 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 3,7 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi, parrandalar umumiy sonidan 14,4 % i fermer xo'jaliklariga, 70,1 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 15,5 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi.

2026- yilning 1- yanvar holatiga
chorva mollari va parrandalar bosh soni (ming bosh)

	Yirik shoxli qoramollar	shundan, sigirlar	Qo'y va echkilar	Parrandalar,
Qoraqalpog'iston Respublikasi	1 265,2	361,9	1 253,8	5 744,6
Nukus sh.	10,0	3,1	10,5	82,4
Amudaryo	180,4	46,5	68,0	1 146,5
Beruniy	169,7	42,3	87,0	1 171,7
Bo'zatov	39,7	12,9	29,6	45,9
Qorao'zak	41,7	14,4	105,1	295,5
Kegeyli	59,8	18,3	36,4	187,9
Qo'ng'iro't	78,3	24,0	114,0	330,7
Qonliko'l	39,4	11,0	35,3	97,3
Mo'ynoq	31,3	10,9	41,2	68,3
Nukus	43,0	14,9	32,1	118,5
Taxiatosh	27,2	10,1	19,0	182,5
Taxtakopir	51,0	22,2	166,3	268,5
To'rtko'l	138,6	40,0	173,4	422,0
Xo'jayli	61,2	17,0	32,0	180,6
Chimboy	87,0	20,9	66,1	300,3
Shumanay	76,6	16,2	92,2	195,8
Ellikqal'a	130,2	37,1	145,8	650,4

V. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarish hajmi – sohada o'z iste'moli va sotish uchun yaratilgan mahsulot va xizmatlarning umumiy qiymati. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarishi dehqonchilik va chorvachilik mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarishi, ovchilik xo'jaligida, o'rmonchilik va yog'och tayyorlash, baliq ovlash va akvakultura sohasida yetishtirilgan mahsulot (xizmat)lar qiymati asosida shakllantiriladi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari – hisobot davrida fermer xo'jaliklarida, dehqon va tomorqa xo'jaliklarida hamda qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda yetishtirilgan dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining jami qiymatini belgilab, qishloq xo'jaligida mahsulot yetishtirishning umumiy hajmini ifodalaydi.

Fermer xo'jaligi – ijaraga berilgan yer uchastkalaridan foydalangan holda qishloq xo'jaligi mahsulotini yetishtirish hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa faoliyat turlari bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlik sub'ektidir.

Dehqon xo'jaligi – meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish yoki ijara (ikkilamchi ijara) huquqi asosida dehqon xo'jaligi boshlig'iga berilgan yer uchastkasida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishni va realizatsiya qilishni dehqon xo'jaligi a'zolarining mehnati asosida amalga oshiruvchi xo'jalikdir.

Tomorqa xo'jaligi – shaxsiy tomorqa yer uchastkalarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ham erkin savdo uchun, ham oila ehtiyojlari uchun yetishtirish (qayta ishlash) bilan bog'liq mehnat faoliyatidir.

Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar – qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchi, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga xizmat qiluvchi, xo'jalik yuritish jarayonida yerga hamda boshqa ishlab chiqarish mulklariga egalik qiluvchi yuridik shaxs huquqiga ega xo'jalik yurituvchi sub'ekt hisoblanadi.

Mollar bosh soni – xo'jalik toifalari bo'yicha barcha yosh guruhlaridagi asosiy turdagi chorva mollarini o'z ichiga oladi (yirik shoxli qoramollar, shu jumladan sigirlar, qo'y va echkilar, cho'chqalar va h.k.)

Go'sht yetishtirish – so'yish uchun sotilgan hamda o'z xo'jaligida so'yilgan barcha turdagi qishloq xo'jaligi hayvonlari va parrandalarning tirik vaznini o'z ichiga oladi.

Sut yetishtirish – yosh mollarga ichirish uchun sog'ib olingan sut va og'iz sutini qo'shgan holda, haqiqatda sog'ib olingan sigir, echki, qo'y, biya va tuya sultari bilan aniqlanadi. Buzoqlar emgan sut yalpi sog'ib olishga kiritilmaydi.

Tuxum yetishtirish – barcha turdagi parrandalardan olingan hamda kurk tovuqlar bilan va inkubatorlarda jo'ja ochish uchun sarflangan tuxumlar miqdorini o'z ichiga oladi.

Metama'lumot uchun havola:

<https://lib.stat.uz/uz/features/qishloq-xo-jaligi-va-ekologiya/685-qishloq-o-rmon-va-baliqchilik-xo-jaligi-mahsulot-xizmat-lari-yalpi-ishlab-chiqarishini-hisoblash-bo-yicha-uslubiy-nizom-2>

Tayyorlash uchun mas'ul:
Qishloq xo'jaligi va atrof-muhit
statistikasi bo'limi

Ijrochi:
N. Madreymov
61 222-76-07 (9610)

Manzil:
230103, Nukus, A. Dosnazarov
ko'chasi, 97 a-uy
Pochta: info@qrstat.uz
